

**RANGTASVIR SAN’ATIDA RANGLARNING
HISSIYOT SIFATIDAGI AHAMIYATI**

Allabergenov Sardor Ataxanovich

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti,

“Chizmatasvir” kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqlolada rangtasvir san’atida rang, janr, mavzu, yo‘nalish va boshqa turlarga murojaat qilishda insonning ichki kechinmalari, tuyg‘ularining chuqur va nozik olami bilan uzviy bog‘liq holda kechishi, bu borada esa raglarning ahamiyati haqida tahliliy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: hissiyot, borliq, an’ana, qadriyat, ramz, metaforiya, obraz.

Аннотация. В статье приведены аналитические сведения о значении эмоции в искусстве цвета, жанра, темы, направления и других видов внутренних переживаний и чувств человека, которые неразрывно связаны с глубоким и тонким миром живописи.

Ключевые слова: эмоция, вселенная, традиция, ценность, символ, метафора, образ.

Abstract. The article provides analytical information about the meaning of emotion in the art of color, genre, theme, direction and other types of inner experiences and feelings of a person, which are inextricably linked with the deep and subtle world of painting.

Keywords: emotion, universe, tradition, value, symbol, metaphor, image.

Har bir yaratilayotgan san’at asarlari ranglarsiz jonlana olmaydi. Shuning uchun ham ranglarning san’atdagi ahamiyati katta. Hech bir san’at asari yo‘qlik unda ranglar bo‘lmasa. Ma’lumki rangtasvir san’atida rang, janr, mavzu, yo‘nalish va boshqa turlarga murojaat qilish har bir rassomning o‘z ihtiyyorida bo‘ladi. Bu holat so‘zsiz insonning ichki kechinmalari, tuyg‘ularining chuqur va nozik olami bilan uzviy bog‘liq holda kechadi. Shu o‘rinda ranglarga qisqacha ma’lumot va izoh berib o‘tsak.

Oq rang doimo poklik ramzi hisoblangan, yaxshilik va quvonchni ifodalagan. Uni kunning yorug‘i va oy shulasiga qiyoslashadi. Oqlik borliqdagi haqiqat, tabiat qonunlari bilan chambarchas bog‘likdir .

Rangtasvirda oq rang poklik ramzini bildirgan. Maleyevich asarlari koloritining ko‘p qismi shu rangda. Zamonaviy badiiy jarayonda ijod qilayotgan rassomlardan M.Toshmurodov, F.Umarov va boshqalar ham oq rangdan unumli foydalanadilar.

Sariq rang tomoshabinda iliq tassurot qoldiruvchi rang hisoblanadi. Sariq qoplamlali buyum kishini o‘ziga tez jalb qiladi, shuningdek, o‘zidan nur

taratayotgandek ko‘rinadi. Bu rangning inson psixologiyasiga tez ta’sir etuvchanligi aniqlangan.

Rangtasvirda sariq rangni o‘z asarlarida ko‘p ishlatgan rassom P.P.Benkovdir. U nur va soya o‘yinlarida ko‘proq sariq rangdan foydalangan.

Qizil rang hursandchilik, go‘zallik, sevgi, mukammal hayotni bildirsa, boshqa tomondan dushmanlik, qasos, urush, jahldorlik kabi hususiyatlarni ifodalovchi rang hamdir. Qizil asosiy tabiat ranglaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mustaqillikning belgisi ham qizil rangdir.

O‘zbekiston rangtasvir san’atida qizil rangda sevib ijod qilgan ijodkorlarimizdan biri Ro‘zi Choriyevdir. U Surxondaryo ayollari va ularning liboslanini shu rang orqali mahorat bilan ifodalagan bo‘lib, bu bilan viloyatning issiq iqlimiga ishora qilgan.

Ko‘k – osmon va dengiz rangidir. U o‘zida inson hotirjamligini mujassam etadi, sovuq havo hovurini beradi. Ko‘k yoki moviy kenglikka qaragan inson hotirasida o‘tmishdagi xotiralar jonlanadi. Ko‘pgina xalqlarda ko‘k rang mangulik ramzi sanaladi.

Tasviriy san’at tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Afrosiyob hamda Bolaliktepa devoriy suratlarida eng ko‘p ishlatilgani ko‘k rang hisoblanadi.

Yashil rang – bu o‘tlar-o‘lanlar va ko‘kalamzorlik ramzidir. Butun borliq tabiat olami ramzidir. Ko‘pgina xalqlarda yoshlik, umid va xursandchilik, o‘spirinlik timsolidir. Rangtasvirda yashil rangni sevib qo‘llagan rus rassomlari I.I.Shishkin va I.I.Levitan hisoblanadi. ularning manzaralari kishi ruhiyatiga ijobjiy tasir qilib, sokinlik baxsh etadi.

Qora rang umuman olganda qayg‘u, jonli tabiatning fojiasini ifodalovchi rang hisoblanadi. Turkiy xalqlarda “qora” so‘zi Shimol ma’nosini bergen va shu bilan birga u buyuk ma’nosini ham bildiradi.

Rangtasvir san’atida Abdulhaq Abdullayev ijodidagi portretlarda ko‘proq qora rangning ishlatilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Har bir san’at asarlari nafaqat rang orqali balki hissiyotlar jumbushi bilan ham tomoshabinga o‘z tasirini ko‘rsatishi mumkin. Tarixdan bilamizki, millatimiz milliy an’ana va qadriyatlar, madaniyat va san’atga boy xalqlardan biri sifatida tan olinib kelingan. Qolaversa, tabiatning rang-barangligi , insonlarning sirli qiyofalari hech bir ijodkorning nazaridan chetda qolmaydi. So‘nggi vaqtarda o‘zbek rassomlari ijodida shunday asarlar vujudga keldiki, ularni hissiyot orqaligina tushunib yetish mumkin bo‘ladi. Ayni vaqtda ijod qilayotgan rassomlardan M.Isanov, J.Usmonov, B.Mahkamov, X.Ziyoxonov va boshqalarning yaratayotgan asarlarining hech birini hissiyotdan holi deyolmaymiz. Hissiyotning o‘zi bir narsa bo‘lsada, lekin u har bir insonda o‘zgacha ruhda tasavvur beradi. Kimdir uni yaqin atrofidan, boshqalar uzoq yerlardan topadilar yoki umuman topa olmasliklari ham mumkin.

Odatda chiziq va rang doimo bir biriga uyg‘un holatda bo‘ladi. Garchi chiziq rangni tartibga solib chegaralab tursada, ammo rangni doimo jilovlab bo‘lmaydi. Bu holat matoda aks etganda esa tasvirlovchining hissiyot olami qanchalik chuqr ekanligini belgilab beradi. Ko‘pgina rassomlar ko‘pincha chekka hududlarda, sokin tabiat qo‘yniga chiqib ijod qilishlarini ham hissiyot olami bilan bog‘lab ko‘rsatish mumkin. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, har bir asardagi rang boshqa rang bilan uyg‘unligi, chiziqlarning ko‘rinishi va yo‘nalishi o‘ziga hos ma’no anglatadi. Bir qator rassomlarimiz bu borada samarali ijod qilib kelishmoqda. A.Mirsagatovning “Oltin kuzim“, A.Boybekovning “Go‘zal Zomin“, H.Mirzaahmedovning “Bahor nafasi“ deb nomlangan asarlarda har bir rassomning o‘ziga hos hissiy bilish darajasini ajratib olish mumkin. Garchi har bir rassom manzara ko‘rinishlarini tasvirlagan bo‘lsada, ammo ularning chizgilar, ma’no va mazmunlari bir biridan tubdan farq qilib turadi. Chunki har bir rassom o‘z asarida qandaydir falsafiy, ilmiy omillarni o‘z ichki hissiyoti orqali bayon qilishga urinadi. Buning sababi, hissiyotlarning cheki chegaralanmas ekanligini ko‘rsatib beradi. Albatta hissiyotlarni mukammal narsa sifatida ko‘rsatib bo‘lmaydi. Agarda inson hech bir narsani ko‘rmasa, unda zahira ham yo‘q demakdir va shu tufayli u bir narsani tasvirlash uchun ham taassurotga ega bo‘lmaydi . Shuning uchun hissiyotni bir vosita sifatida ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun uni ko‘rib ham, ushlab ham bo‘lmaydi. Rangtasvir asarlarida esa turli ko‘rinishlarda aks ettirilishi mumkin. Qaysidir rassom uni shakl, plastika, dinamika orqali ko‘rsatib bermoqchi bo‘lsa yana biri umuman boshqacha ko‘rinishda ifodalab berishga urinadi.

Hissiyotlar davr ruhiga qarab ham o‘zgarib boradi. Chunki insoniyat ongi o‘sib borgani sari unda yangi-yangi g‘oyalar paydo bo‘ladi va unga mos ravishda hissiyot olami ham o‘zgarib boradi. So‘nggi vaqtarga kelib o‘zbek rangtasvirida ko‘proq ramziy metaforik obrazlar va chuqr falsafiy ma’noga ega bo‘lgan asarlar yaratilmoqda. Bu yo‘nalishda F.Ahmadaliyev, B.Ismoilov, V.Useinov va boshqa ko‘plab rassomlar ijod qilishmoqda. Hissiyotlarning bari kuchli turtki orqali vujudga kelishi to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak, albatta ularning bari bir hil muhitda yoki vaziyatda sodir bo‘ladi deb ayta olmaymiz. Ba’zilar sokin tabiat go‘zalligidan bahra olsa, ba’zilar baxtsiz voqealar, urush va notinchliklardan hosil bo‘lgan o‘z ichki hissiyotlarini mato yuzasiga tushurishga harakat qiladilar Umuman olganda, adabiyotda hissiyot qalam orqali qog‘ozga tushurilsa, rangtasvirda mo‘yqalam va ranglar orqali ifoda etiladi. Shundan anglab olish mumkinki, adabiyot qanchalik chek-chegarasiz bo‘lsa rangtasvir san’ati ham bu borada u bilan bemalol tenglasha oladi deyishimiz mumkin. Xattoki, rangtasvir adabiyotni ham o‘z ichiga qamrab olishi mumkin. Chunki butun bir narsani bir qancha chizgilar orqali ifodalab berish imkoniyati rangtasvir san’atida ancha keng darajada shakllangan. Hissiyotlarning chegarasizligi rassomni ba’zida chalkashtirib yuborishi ham mumkin. Bu holat rassom ijodida mantiqiy jarayon, ya’ni, ijodiy erkinlikni his etishni qiyinlashtirib qo‘yishi

mumkin. Bu holatdan chiqib ketish, albatta, har bir rassomning o‘ziga bog‘liq. Umuman olganda faqatgina mato, mo‘yqalam va rang bilan rangtasvir asarini mukammal darajadagi san’at deyishimiz qiyin. Bu ruhsiz o‘lik tanaga o‘xshaydi va unga hechkim qayrilib ham qaramaydi. Qachonki rangtasvir asari mukammal ranglar va albatta chuqur hissiyot orqali vujudga kelsagina uni tomoshabin ham erkin tarzda qabul qila oladi va undan zavqlanadi.

Demak, rangtasvir san’at asarlarini his qilishda ranglar va hissiyot eng oliy darajadagi omil hisoblanar ekan va bu har ikkisining ham har bir rassomda turli tarzda o‘z ifodasini topishi uning chegarasiz ekanligining yana bir yorqin isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова Н. Проблемы развития современного искусства Узбекистана. //Тамыр. Искусство/. Культура. Философия. № 1(6).
2. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века традиции, самобытность, диалог. Т., 2004.
3. Маматов У. Ўзбекистон маданиятида тарихий жанрдаги тасвирий санъат асарлари (XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошлари). /Монография. – Т.: 2018. – 230 б.
4. Мозийдан таралган зиё. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни, 1998.
5. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар). //Таҳрир ҳайъати: X.Караматов, Н.Жўраев, Т.Қўзиев ва бошқалар. Илмий муҳаррир: А.Ҳакимов. – Т.: Шарқ, 2001. – 240 б.